NAMANGAN VILOYATI DAVLATOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 20-sentabr | 239-6-219-Q/24 | Davlatobod tumani hokimligi

Davlatobod tumani, “Tadbirkor” MFY “Yoshlar” ko’chasida joylashgan Ko‘p tarmoqli bolalar shifoxonasi, 46-sonli MTT va 92-sonli umumta’lim maktabi oldiga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda “Orzu” MFY, 1-Yangi bog‘ ko‘chasi avtomobil yo‘liga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qarori ijrosini ta’minlash, Davlatobod tumanida avtotransport vositalarining harakatini tartibga solish maqsadida, shuningdek Namangan viloyat IIB JXX YXXB boshqarmasining 2024-yil 12-avgustdagi 24/6-2389-sonli xulosa xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N

1. Namangan viloyat IIB JXX YXXB boshqarmasining 2024-yil 12-avgustdagi 24/6-2389-sonli xulosa xati inobatga olinsin.

2. Davlatobod tumanida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash uchun yirik gabaritli va katta hajmli yuk transport vositalarining to‘xtash va to‘xtab turishini taqiqlash maqsadida, “Tadbirkor” MFY, “Yoshlar” ko’chasida joylashgan Ko‘p tarmoqli bolalar shifoxonasi, 46-sonli MTT hamda 92-sonli umumta’lim maktabi oldiga **3.27 “To‘xtash taqiqlangan”** yo‘l belgilarini hamda “Orzu” MFY, 1-Yangi bog‘ ko‘chasi avtomobil yo‘liga sun’iy yo‘l notekisliklarini amaldagi tartib bo‘yicha o‘rnatilsin.

3. Davlatobod Ichki ishlar bo’limi (S.Shukurov):

tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (S.Yo‘ldashev), Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (M.G‘aziyev) bilan

hamkorlikda Davlatobod tumani ko‘chalarida yo‘l belgisi o‘rnatishlishini tashkil etsin hamda mazkur hududlarda avtomobillar harakati cheklanishini nazorat qilish;

Yo‘llarni saqlash va ularni yo‘l belgilari, axborot ko‘rsatkichlari, yo‘l harakatini tartibga solishning boshqa vositalari bilan jihozlash bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimligining Axborot xizmati (O.Narzullayev) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilish va hokimlikning rasmiy veb-sayti (Davlatobod.uz)ga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

5. Mazur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Raximov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Tadjimirzayev**